

DASTLABKI TERGOV BOSQICHIDA ADVOKAT ISHTIROKINING MUHIM JIHATLARI

Abduvoxobova Munisa Zafar qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14968295>

Annotatsiya. Ushbu maqolada dastlabki tergov bosqichida advokatning ishtiroki va uning ahamiyati tahlil qilinadi. Advokat himoyasi jinoyat protsessi ishtirokchilari huquqlarining kafolatlanishi, tergovning shaffofligi va adolatning ta'minlanishi uchun muhim vosita hisoblanadi. Maqolada advokatning vakolatlari, huquqiy asoslar va himoya jarayonidagi roli yoritiladi.

Kalit so'zlar: Dastlabki tergov, advokat (himoyachi), himoya huquqi, jinoyat protsessi, protsessual kafolatlar, sud-huquq tizimi.

IMPORTANT ASPECTS OF THE PARTICIPATION OF A LAWYER AT THE STAGE OF THE PRELIMINARY INVESTIGATION

Abstract. This article analyzes the participation of a lawyer at the stage of the preliminary investigation and its significance. Lawyer's protection is considered an important means of guaranteeing the rights of participants in the criminal process, ensuring the transparency of the investigation and justice. The article discusses the powers, legal foundations and role of a lawyer in the defense process.

Keywords: Preliminary investigation, lawyer (defendant), defense law, criminal procedure, procedural guarantees, judicial system.

ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ УЧАСТИЯ АДВОКАТА НА НАЧАЛЬНОМ ЭТАПЕ РАССЛЕДОВАНИЯ

Аннотация. В статье анализируется участие адвоката и его значение на начальном этапе расследования. Правовая защита является важным средством обеспечения прав участников уголовного судопроизводства, гласности расследования и обеспечения правосудия. В статье рассматриваются полномочия, правовые основы и роль адвоката в процессе защиты.

Ключевые слова: Предварительное расследование, адвокат (обвиняемый), право защиты, уголовный процесс, процессуальные гарантии, судебная система.

Kirish: Dastlabki tergov jinoyat-protsessual tizimining muhim bosqichi bo'lib, unda ayblanuvchi yoki gumonlanuvchining huquqlari ta'minlanishi lozim. Ushbu bosqichda advokatning ishtiroki shaxsning qonuniy huquqlarini himoya qilish va tergovning shaffofligini

ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Maqolada dastlabki tergov jarayonida advokat ishtirokining huquqiy asoslari, muhim jihatlari va uning ta'siri tahlil qilinadi.

Maqolaning asosiy maqsadi - dastlabki tergov jarayonida advokat ishtirokining huquqiy asoslari, uning roli va ahamiyatini tahlil qilish, shuningdek, advokatning tergov jarayonidagi o'рни haqida fikr yuritishdir. Shuningdek, maqolada advokat ishtirokisiz tergov olib borishning mumkin bo'lgan salbiy oqibatlari va ularning oldini olish yo'llari muhokama qilinadi.

Shuningdek, mustaqil O'zbekistonimiz bosib o'tilgan qisqa davr mobaynida inson huquqlarini himoya qilish borasida ko'plab ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Birgina 1996-yilda qabul qilingan "Advokatura to'g'risida"gi Qonun va 1998-yildagi "Advokatura faoliyatining kafolatlari va advokatning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlar davlatimiz tomonidan mazkur yo'nalishda qilinayotgan dastlabki ishlardir. Shu qatorda 2019-yil 9-yanvarda prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni ham muhim ahamiyatga molik.

Surishtiruv va dastlabki tergovda himoyalaniş huquqini ta'minlash deganda jinoyat protsessi ishtirokchilarini, ya'ni gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, jabrlanuvchi va guvohlarni tergovchi va surishtiruvchi tomonidan himoyalaniş huquqi bilan ta'minlanish tushuniladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Protsessual Kodeksining 24-moddasida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchi himoyalanish huquqiga ega ekanligi keltirilgan.

Asosiy qism: Dastlabki tergov va uning huquqiy asoslari. Dastlabki tergov jinoyat-protsessual tizimining ajralmas qismi bo'lib, u jinoyat ishining hal qiluvchi bosqichlaridan biridir. Bu bosqichda jinoyat sodir etilganligi haqidagi dastlabki dalillar yig'iladi, gumonlanuvchi yoki ayblanuvchi shaxslar aniqlanadi, protsessual hujjatlar rasmiylashtiriladi va keyingi sud bosqichiga tayyorgarlik ko'riladi.

Dastlabki tergovning huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi va boshqa tegishli qonun hujjatlarida belgilangan. Ularning asosiy maqsadi – tergov jarayonining qonuniy, xolis va adolatli o'tishini ta'minlashdan iborat.

Dastlabki tergov harakatlari quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

Qonuniylik – barcha tergov harakatlari amaldagi qonunchilik doirasida amalga oshirilishi lozim.

Aybsizlik prezumpsiyasi – gumonlanuvchi yoki ayblanuvchi jinoyat sodir etganlikda isbotlanmaguncha aybsiz hisoblanadi.

Xolislik va odillik – tergov harakatlari hech bir tomonning manfaatlariga zid bo'lmagan holda olib borilishi lozim.

Shaxsiy daxlsizlik va huquqlarni hurmat qilish – tergov jarayonida shaxsning huquqlari poymol etilmasligi va unga nisbatan bosim yoki noqonuniy usullar qo‘llanmasligi kerak.

Dastlabki tergov bosqichida quyidagi protsessual harakatlar amalga oshiriladi:

- Jinoyat ishi qo‘zg‘atilishi;
- Dalillar yig‘ilishi va tahlil qilinishi;
- Guvohlar va jabrlanuvchilar so‘roq qilinishi;
- Gumonlanuvchilar yoki ayblanuvchilar so‘roq qilinishi;
- Ekspertizalar o‘tkazilishi;
- Protsessual qarorlar qabul qilinishi va hujjatlar rasmiylashtirilishi.

Dastlabki tergov jarayonida advokatning ishtiroki shaxsning huquqlari va manfaatlarini himoya qilishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Advokat himoyasi ostidagi shaxsning huquqlarini ta‘minlash, uning ish hujjatlari bilan tanishish, qonunga zid tergov harakatlariga e‘tiroz bildirish va sud jarayoniga tayyorgarlik ko‘rish kabi vazifalarni bajaradi. Shu sababli, tergov jarayonining shaffofligi va qonuniyligi advokatning faol ishtiroki bilan chambarchas bog‘liqdir.

Advokatning huquq va majburiyatlari. Advokat dastlabki tergov bosqichida shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi. Advokatning asosiy huquqlari va majburiyatlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Advokatning huquqlari:

Mijoz bilan uchrashish, himoya huquqini ta‘minlash, ish hujjatlari bilan tanishish, dalillar taqdim etish, tergov harakatlarida ishtirok etish, prokuratura va sudga murojaat qilish shular jumlasidan.

Advokatning majburiyatlari:

Mijoz manfaatlarini himoya qilish, qonuniylikka rioya qilish, maxfiylikni ta‘minlash, dalillarni soxtalashtirmaslik va ularni xolisona o‘rganishdan iborat.

Advokatning tergov jarayonidagi faol ishtiroki inson huquqlarining ta‘minlanishiga va odil sudlovga erishishga xizmat qiladi. Shuningdek, u shaxsga nisbatan noqonuniy bosim o‘tkazilishining oldini olish, tergovning xolis olib borilishi va aybsizlik prezumpsiyasining ta‘minlanishini nazorat qilishda muhim rol o‘ynaydi. Advokat mijozining huquqlarini himoya qilish bilan birga, tergov jarayonining adolatli va shaffof bo‘lishini ta‘minlashga xizmat qiladi. Shu sababli, tergov jarayonining har bir bosqichi qonuniylik tamoyillariga rioya qilgan holda olib borilishi lozim. Advokat shuningdek, mijozining manfaatlarini qonuniy doirada himoya qilish va uning huquqlarini poymol etilishiga yo‘l qo‘ymaslik majburiyatini ham o‘z zimmasiga oladi.

Tergov jarayonida huquqiy yordamning ahamiyati. Tergov jarayonida huquqiy yordam ko'rsatish inson huquqlarini himoya qilish, adolatni ta'minlash va noqonuniy tergov usullarining oldini olish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchini himoya huquqi bilan ta'minlash jinoyat protsessida himoya funksiyasini keltirib chiqaradi. Xo'sh, jinoyat protsessida himoyaning mohiyati nimalardan iborat? Jinoyat protsessida, ayniqsa tergov va surishtiruv davomida himoya huquqini ta'minlash avvalo umuminsoniy qadriyatlarga borib taqaladi. 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi"da shaxs huquqlarini himoya qilish jumladan jinoyat ishlarini yuritishda ham himoya huquqini ta'minlashga oid bir qancha normalar belgilangan. Jumladan Deklaratsiyaning 8-moddasida "har bir inson moboda uning Konstitutsion qonun bilan belgilangan asosiy huquqlarini buzgudek bo'lsa, milliy sudlar tomonidan o'z huquqlarini samarali tarzda tiklash buquqiga egadir" deb belgilangan. Shuningdek, deklaratsiyaning 11-moddasida "Har bir inson uning huquqlari va burchlarini belgilash va unga qo'yilgan jinoiy aybning nechog'liq asoslanganligini aniqlash uchun, batamom tenglik asosida o'z ishi oshkora, adolatning barcha talablariga rioya etilib mustaqil va xolis sud tomonidan ko'rib chiqishi huquqiga egadir" deb qayt etilgan.

Umuman olganda, advokatning ishda ishtirok etishiga u advokat guvohnomasini ko'rsatganidan va muayyan ishni yuritishga vakolatli ekanligini tasdiqlovchi orderni taqdim etganidan keyin yo'l qo'yiladi.

Advokat ishtirokisiz tergovning salbiy oqibatlari. Shaxsni ayblanuvchi sifatida jalb qilish paytida himoyachini ishtiroki muhim huquqiy ahamiyatga ega. Shunga asosan himoyachi ayblanuvchiga qo'yilgan ayb va ayblanuvchining shaxsiga oid ma'lumotlarni o'rganadi. Biroq, ko'pincha amaliyotda tergovchilar yoki surishtiruvchilar ayblanuvchilarga himoyaga muhtoj emaliklari va himoyani shaxsan o'zlari olib borish imkoniyatiga egaligi to'g'risidagi tilxatlarni to'ldiradilar. Bu esa himoyalani huquqi bilan ta'minlash masalasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bu holatlarning davom etishi, albatta salbiy oqibatlarga olib keladi. Birinchi navbatda inson huquqlarining qo'pol buzilishiga, qonun bilan qo'rqlanadigan erkinliklarining kamsitilishiga olib keladi. Konstitutsiyamizda belgilanganidek, har kim o'zini himoya qilish huquqiga ega, ya'ni u na tergovda, na surishtiruvda, xoh sudda bo'lsin o'zlarini himoya qilish huquqiga egadir.

Shu o'rinda xorij tajribasini **Singapur misolida** o'rganib chiqsak. Singapurda dastlabki tergov bosqichida advokatning ishtiroki qonun bilan tartibga solinadi va gumonlanuvchilarning huquqlarini himoya qilishda muhim ahamiyatga ega.

Singapur qonunchiligiga ko'ra, gumonlanuvchi hibsga olinganidan keyin advokat bilan uchrashish huquqiga ega, ammo bu huquq darhol amalga oshirilmasligi mumkin; tergov manfaatlari uchun vaqtinchalik cheklovlar qo'yilishi tabiiydir.

Advokatning ishtiroki, ayniqsa, gumonlanuvchining huquqlarini tushuntirish, tergov jarayonida qonuniylilikni ta'minlash va noqonuniy bosimlardan himoya qilishda muhimdir. Biroq, Singapurda tergov organlari keng vakolatlarga ega bo'lib, gumonlanuvchini advokat ishtirokisiz so'roq qilishlari mumkin, bu esa ba'zi hollarda gumonlanuvchining huquqlarini cheklashi mumkin. Masalan, Singapur Korrupsiyaga qarshi kurash byurosi (CPIB) korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilishda keng vakolatlarga ega bo'lib, gumonlanuvchilarni advokatsiz so'roq qilish, bank hisoblarini tekshirish va boshqa tergov harakatlarini amalga oshirish huquqiga ega.

Bu esa gumonlanuvchilarning huquqlarini himoya qilishda muayyan cheklovlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu bilan birga, Singapurda advokatlarning tergov jarayonidagi ishtiroki gumonlanuvchilarning huquqlarini himoya qilish va adolatli sud jarayonini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Advokatlar mijozlariga huquqiy maslahatlar berish, ularning huquqlarini tushuntirish va tergov jarayonida qonuniylilikni ta'minlash uchun zarur choralarni ko'radilar.

Umuman olganda, Singapurda dastlabki tergov bosqichida advokat ishtiroki qonun bilan belgilangan bo'lsa-da, tergov organlarining keng vakolatlari sababli gumonlanuvchilarning huquqlari ba'zi hollarda cheklanishi mumkin. Shuning uchun advokatlarning faol ishtiroki va huquqiy yordam ko'rsatishi gumonlanuvchilarning huquqlarini himoya qilishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, dastlabki tergov bosqichida advokat ishtirokining ta'minlanishi qonun ustuvorligi va inson huquqlari kafolatlanishining muhim sharti hisoblanadi. Advokat mijozining huquqlarini himoya qilish bilan birga, tergov jarayonining adolatli va shaffof bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi. Shunday qilib, advokat ishtirokisiz olib borilgan tergov jinoyat-protsessual qonunchilik talablariga to'liq mos kelmasligi va inson huquqlari buzilishiga olib kelishi mumkin.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi || <https://lex.uz/docs/-111460>
3. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyadi – T.Adolat 1998 yil B – 17
4. Saidov A.X. Xalqaro huquq: Darslik. – T, - 320-bet;
5. Andrew Ashworth. "Criminal Procedure: Principles and Practice".